



QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARUV OMILLARI VA NATIJALARI

Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

ORCID: 0009-0004-9406-1927

maubaydullayev7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish qurilish materiallari sanoati korxonalarining strategik boshqaruv omillari va natijalari ko'rib chiqilgan. Mualif tomonidan qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv jarayonlarini o'rganish va tahlil qilish yoritilgan. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv jarayonlarida strategiyani tuzib chiqish hamda uni shakllantirish bilan bog'liq harakatlar ko'rib chiqilgan hamda shu turdagi korxonalar ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qurilish, qurilish materiallari, strategiya, strategik boshqaruv, sanoat korxonalarida, qurilish materiallari sanoati, qurilish korxonalarida boshqaruvi, sanoat iqtisodiyoti, uy-joy qurilishi, sanoat mahsulotlari, qurilish ishlari hajmi.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ УПРАВЛЕНИЯ И РЕЗУЛЬТАТЫ В ПРЕДПРИЯТИЯХ ИНДУСТРИИ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Убайдуллаев Мухаммаджон Абдусамад угли

Ферганский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы и результаты стратегического управления предприятиями промышленности строительных материалов. Автором изучены и проанализированы процессы управления предприятиями данной отрасли. Рассмотрены действия, связанные с разработкой и формированием стратегии в управлении предприятиями промышленности строительных материалов, а также проведен анализ показателей таких предприятий.

Ключевые слова: строительство, строительные материалы, стратегия, стратегическое управление, промышленные предприятия, промышленность строительных материалов, управление строительными предприятиями, экономика промышленности, жилищное строительство, промышленные товары, объем строительных работ.

STRATEGIC MANAGEMENT FACTORS AND RESULTS IN ENTERPRISES OF THE CONSTRUCTION MATERIALS INDUSTRY

Ubaydullayev Mukhammadjon Abdusamad o'gli

Fergana State University

Abstract. *This article examines the factors and results of strategic management in the construction materials industry. The author has studied and analyzed the management processes of enterprises in this sector. The article discusses actions related to the development and formation of strategy in the management of construction materials industry enterprises, as well as an analysis of the performance indicators of such enterprises.*

Keywords: *construction, construction materials, strategy, strategic management, industrial enterprises, construction materials industry, management of construction enterprises, industrial economics, housing construction, industrial products, volume of construction works.*

Kirish.

Korxonalarining uzoq yillar davomida bozorda o'z o'rnini va sifatini saqlab qolishi hamda korxonaning doimiy ish faoliyatini yuqori natijalarda saqlab qolishida strategik boshqaruvning ahamiyati yuqoridir. Shu sababli qurilish materiallari sanoati korxonalari o'rtasida istiqbolli ko'p yillik strategiyalarni shakllantirishni o'rganish muxim sanalib, tabiiyki bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib boorish ham muxim xisoblanadi. Yuqori raqobat va tez o'zgarayotgan bozor sharoitlarida barcha kompaniyalar nafaqat ichki bozorga e'tibor qaratishlari, balki jaxon bozorida yuz berayotgan o'zgarishlarga ham moslashishga imkon beruvchi uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishlari zarur.

Boshqaruv har qanday sohada u qurilish bo'ladimi, sanoat bo'ladimi yoki qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxona bo'ladimi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak boshqaruv – bu chuqur tahlilni, ishlanmalarni va ma'lum maqsadlarni to'g'ri qo'yishga qaratilgan, makon va zamonda to'xtovsiz amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Lekin boshqaruv biror narsa yoki biron tomonidan boshqarilsagina vujudga keladi. Bu asnoda boshqarish haqidagi fan, boshqaruv subyekti va obyekti tushunchasini kiritadi (Ibragimov, 2021).

Adabiyotlar sharhi.

Smid (1776) klassik maktab nomoyondalaridan, mehnat taqsimotining turli shakllarini tahlil qilgan hamda korxona faoliyatini rejalashtirish fan va amaliyotining rivojlanishi evolyutsion xarakterga ega ekanligini bayon etgan.

Taylor (1911) menedjmentni fan sifatida kiritish bo'yicha ilmiy loyiha harakatiga raxbarlik qilgan. U inson faoliyatining samaradorligi bilan emas, balki ilmiy boshqaruv maktabining rivojlanishining boshlanishi bo'lgan tashkilotning samaradorligi bilan kerakli natijalarga erishish osonroq bo'lishini ta'kidlagan.

Gusakov (2004) qurilish sohasi injeneriyasini asosiy tadqiqot yo'nalishi sifatida, qurilishda murakkab avtomatlashtirilgan texnik tizimlarni yaratish fani sifatida, bundan tashqari qurilish obyektlariga tizimli yondashuvni qo'llash sifatida o'rgangan.

Kachaeva (2018) o'z ishlarida qurilish sohasida axborot texnologiyalari va raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish hamda foydalanishning afzalliklari sifatida tizimni virtual rejimda ko'rish, reja-grafikni avtomatlashtirish va to'g'ri shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Fayol (1916) o'zining ilmiy ishlarida birinchilardan bo'lib ushbu mavzuni yoritgan edi. U butun boshqaruv jarayonini biz tashkilotni boshqarishda hali ham foydalaniladigan beshta asosiy funktsiyaga ajratdi: rejalashtirish, tashkil etish, kadrlarni tanlash va joylashtirish, yetakchilik (motivatsiya) va nazorat.

Respublikamiz olimlaridan ushbu sohada Usmonov (2023) qurilish sanoatida resurslardan samarali foydalanish, tizimli yondashuv asosida boshqaruv modellarini ishlab chiqqan va "Qurilish ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili" mavzusida ishlarida bayon etgan. Qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi xarajatlar tahlili, optimallashtirish modellari, logistikani boshqarish tizimlari bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslarni ishlab chiqqan.

Rustamov (2018) sanoat korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish va ishlovchilar manfaatdorligini oshirishni «aylanma harakat modeli»ni ishlab chiqqan.

Kadirov (2019) sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini o'rgangan. U korxonalarning rentabelligini ta'minlash uchun moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing va texnologik barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil etgan. Shuningdek, muallif yuqoridagi to'rt omil (moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing va texnologik) asosida barqaror rivojlanishni hozirgi darajasi va kelgusidagi o'zgarish dinamikasiga baho bergan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolaning mavzusi qurilish sanoati korxonalarida raqamli va innovatsion boshqaruv sharoitida, strategiyalarni to'g'ri tuzish va shakillantirishni yoritishga bag'ishlangan bo'lib, birinchi navbatda mavzuning dolzarbligi asoslab berildi, xorijiy va mahalliy olimlarning ushbu sohadagi ishlari o'rganildi. Maqolada nazariy kuzatish, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil qilish, va sintez qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Boshqarish jarayonlari, qaysi bir bo'g'inda bo'lishidan qat'iy nazar, u davriy va bir vaqtning o'zida uzluksiz hisoblanadi. Uzluksizlik bir vaqtning o'zida va ketma-ket amalga oshiriladigan ko'plab sikllarni bajarishda vujudga keladi. Boshqarish sikli maqsadlarni ishlab chiqishdan boshlanadi va ularga erishish bilan yakunlanadi. Bunday siklning asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

- maqsadlarni rejalashtirish;
- qabul qilingan qarorlarni yoki maqsadli funksiyalarni tartibga solish;
- erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash;
- yangi boshqaruv qarorlarini tanlab olish va belgilab olish. Bu hamma sikllar uchun asosiy bo'lib boshqarish ta'siri hisoblanadi. Aynan ta'sir qilish - boshqaruvning asosidir. Ta'sir qilish, ya'ni boshqaruv ta'sirini o'tkazish samarali bo'lishi uchun quyidagi asosiy shartlarga rioya qilish lozim:

1. Boshqaruvchi yoki boshqariluvchi tizimlar singari boshqaruv obyekti va sub'yekti o'zaro bir-biriga sabab-oqibat munosabatlari orqali bog'liq bo'lishi kerak.

2. Boshqarayotgan tizimda boshqarish maqsadi aniq bo'lish kerak. Boshqarayotgan tizim boshqarish ob'yektining holati haqidagi axborotlarni faoliyat natijalari, muhitning o'zgarishi kabilarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Boshqarish ob'yekti boshqarish ta'sirlarni qabul qila olish, o'zlashtirish va qo'yilgan vazifani mazmuniga mos ravishda bajara olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.


Boshqarishning ob'yektiv zarurligi mavqe teoriyasi kabi va xo'jalik amaliyotida ham albatta belgilangan qonuniyatlarni, shartlarni, sub'yekt bilan obyekt boshqarishning o'zaro nisbatlari ramkalar bilan chegaralab qo'yish mumkin emas. Boshqarish fan sifatida ko'p jixatlarni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- tashkilot boshqarmasi va ish boshqarmasi.
- texnologiya boshqarmasi ya'ni informatsion ta'minlash boshqarmasi va qarorlarning qabulqilinishi.
- kadrlar boshqarmasi metodlari va boshqarish usuli.
- ishlab chiqarilayotgan tovar sifatining boshqarmasi.

- loyiha tizim boshqarmasi va h.k.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu jihatlar har bir sohada va biz tahlil qilayotgan qurilish sohasi bo'yicha ham o'zgarishga uchrashi yoki yechim usullariga ega bo'lishi mumkin. Va bu tomondan qurilishni boshqarish undagi boshqarish maqsad funksiyalari umumjamiyat ishlab chiqarishini boshqarishdagilari bilan bir xil bo'lsada, boshqa sohalardan o'zining ixtisoslashishi va birinchi navbatda ishlab chiqarishni tashkillashtirish va ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatlaridan kelib chiqib sezilarli darajada farq qiladi. Lekin qurilish sohasi hamda unga tutash bo'lgan sohalarni ham strategiya tuzishda bo'ladigan holat va jarayonlarini tahlil qilibgina keyin strategiyani tuzish korxona faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xaf-xatarlarni ham oldindan ko'ra bilishga erishiladi.

Boshqarish qonuni, tabiat, jamiyat va ong rivojlanish qonuni bilan mosligini quyidagi sxema tarzida ko'rish mumkin.



1-rasm. Qurilishda boshqarish maqsadi, vazifalari va xususiyatlari


Manba: muallif ishlanmasi.

Bu sistemaning ijobiy faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi ham ichki imkoniyatlar va resurslarga, ham tashqi muhitga bog'liq bo'ladi. Amaliyotda tashqi muhit va avvalambor qurilish tashkilotlarining buyurtmachilar mablag'lariga bog'liqligi tizim sifatida boshqarish samaradorligiga jiddiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida, ko'pincha qurilishdagi boshqarish maqsad funksiyalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va ko'p hollarda boshqarishning oldindan berilgan parametrlariga ma'lum o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Lekin bu bilan maqsad funksiyalari o'zgarmaydi.

Tabiiyki, maqsad va vazifalarsiz boshqarish bo'lmaydi. Boshqarish, doim fan xususiyatlariga ega bo'ladi. Bundan kelib chiqib, boshqarish maqsadi deganda, nafaqat qurilish balki, bugun jamoat amaliyotida, erishilishi zarur bo'lgan qandaydir ideal, oldindan berilgan natijani tushunish kerak. Qurilishda – bu ob'yektni ekspluatatsiyaga berish, uni buyurtmachi

(investor)ga topshirish va ko'zlangan foydani olish. Bu maqsad esa biz hohdaganimizdek oson, tez va muammolarsiz ham bo'lmaydi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan qurilish sohasidagi korxona va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar samaradorligi tahlilini ko'rib chiqadigan bo'lsak.



2-rasm. O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qurilish hajmi indeksi

Manba: Statistika agentligining ma'lumotlariga asoslanib, muallif ishlanmasi.

Ushbu diagrammada ko'rishimiz mumkinki O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 100.9 mlrd.so'mdan 106.8 mlrd. so'mgacha ortganini va ushbu ishlab chiqarilgan sanoat hamda qurilish materiallari evaziga qurilish hajmining 2020-2024-yillardagi dinamikasi 109.5 mlrd.so'mdan 108.8 mlrd.so'mga paslaganini qayd etilgan.

Xulosa va takliflar.

Respublikamiz qurilish materiallari sanoati korxonalarini strategik boshqaruvini to'g'ri tashkil etishi va uni yuritishi, nafaqat kompaniy hamda korxonalarning iqtisodiy-ijtimoiy o'sishiga balki mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy sektoriga ham sezilarli darajada foyda keltirishi tabiiy. Maqolada tahlil qilingan statistik ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak O'zbekiston sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qurilish hajmi indeksi bo'yicha, dunyoda kuzatilgan pandemiya davrida ko'rsatkichlar paslaganini ko'rish mumkin. Bu o'z navbatida strategiyani qayta tuzishga olib kelgani hamda sanoat mahsulotlari va qurilish ishlarini zudlik bilan holatga moslashib, to'g'ri boshqaruvni tashkillash orqali yana ijobiy o'sishga erishgani qayd etilgan.

Qurilish sanoati boshqaruvi strategiyalarini tuzishda qo'l keladigan taklilar:

1. Yashil iqtisodiyot sharoitida, yangi materiallar ishlab chiqarish, ekologik toza va energiya tejavchi qurilish materiallariga sarmoya kiritish (masalan, nanokompozitlar, yengil beton, biosement).

2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, 3D-printer orqali qurilish materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.

3. Ilmiy-tadqiqot ishlarida OTM va Illar bilan hamkorlik yani ilmiy institutlar va universitetlar bilan hamkorlikda yangi mahsulotlarni ishlab chiqish.

4. Ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, energiya va xomashyo tejamkorlik dasturlarini ishlab chiqish.

5. Xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqish va eksport bozorlariga chiqish (MDH, Osiyo va Yevropa bozorlariga yo'naltirish).
6. Xodimlarning g'oyalarini rag'batlantirish tizimini joriy etish, ichki innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Adam Smit. (1776), "Millatlar boyligi" ("An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations").

Fayol A. (1916) "Umumiy va sanoat boshqaruvi" ("Administration Industrielle et Générale").

Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5392-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3605171>

Ibragimov S. (2021) Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiyoti-O'quv qo'llanma, Toshkent.

Kadirov A.M. (2019) Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish («Andijonneft» AJ misolida) mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent. 11-bet.

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4335-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4351738>

Rustamov N.I. (2018) Sanoat tarmoqlarini ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida rivojlantirish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent. 7-11-betlar.

Taylor F. (1911) "Ilmiy boshqaruv tamoyillari" ("The Principles of Scientific Management").

Ubaydullayev M.A. (2024) "Mechanisms for improving innovative management methods in the construction materials industry enterprises"- Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 12, Issue 12 December.

Ubaydullayev M.A. (2025) "O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni"- Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 25.02.2025, (ISSN:2992-8982).

Ubaydullayev M.A. (2025) "Qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion boshqaruv usullari" - International scientific and practical conference "smart technologies and innovative approaches in research: building a digital future", February 22.

Usmonov I.A. (2023) Qurilish ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili.

Voronin, N.V. (2019) Korxonani rivojlantirish strategiyasini tanlashning o'ziga xos xususiyatlari // Fan va ta'lim byulleteni. – No 12-2 (66). – 17-20-betlar.